

IQLIM O‘ZGARISHI BILAN BOG‘LIQ XARAJATLAR TAHLILI VA MOLIYAVIY KO‘RSATKICHLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11398429>

Isaxonova Ruxshona Muzaffar qizi

TDIU talabasi

rosy270305@gmail.com

Bugungi kunda dunyoda bo‘layotgan o‘zgarishlar, tabiiy ofatlar, iqlim o‘zgarishi global miqyosda muammolarni vujudga keltirayotgan asosiy xavflarning aksariyat qismini tashkil etmoqda. Ayni vaqtda bu muammolar aholi sonining ortishi bilan birgalikda ishlab chiqarishdagi ehtiyojlarga juda katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Soha ekspertlari hamda olimlar bu borada vaziyatni ijobiy tarafga o‘zgartirish maqsadida iqtisodiyotda “yashil taraqqiyot” tamoyillarini keskin ravishda tadbiiq qilish zarur ekanini ta’kidlashmoqda.


Yashil iqtisodiyot bu - inson farovonligi, ijtimoiy tenglikni vujudga keltirish, ekologik xatar va tanqisliklarni sezilarli darajada kamaytiradigan iqtisodiyot deya ta’riflanadi. Qisqa qilib aytganda, yashil iqtisodiyotni kam uglerodli, tejamkor resurslar deb ham hisoblash mumkin. Uning asosiy maqsadi sifatida sayyoramizning ekologiyasi va unga zarar yetkazmagan holda ishlab chiqarish sanoatini yo‘lga qo‘yish bilan birgalikda barcha sohalarni rivojlanatirish ko‘zda tutilgan.

O‘zbekistondagi iqlim o‘zgarishlari, jumladan cho‘llashish, qurg‘oqchilik, suv tanqisligi va Orol dengizining qurishi eng dolzarb muammolardan biri. Mamlakatdagi haroratning yuqori suratlarda ortishi va ichimlik suvining asosiy manbai bo‘lgan tog‘ muzliklarining dunyoning o‘rtacha ko‘rsatkichlardan tezroq eriyotgani iqlim xavf-xatarlarini yanada kuchaytirishiga sabab bo‘lmoqda. Jahon Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, o‘rmonlar O‘zbekiston hududining 7,7 foizini (xalqaro ko‘rsatkichlarga nisbatan ancha pastroq) tashkil etsada, ular cho‘llanishni kamaytirish, biologik xilma-xillik hamda landshaftlarni muhofaza qilishda muhim rol o‘ynaydi [1].

2020-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish rejasi doirasida "yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada ko'proq amalda tadbiq qilish maqsadida 2022-yil 2-dekabr sanasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qarori qabul qilindi [2].

Bunday yondashuvlar BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarida ham o'z aksini topgan. 2022-yilda BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi vakolatxonasi (BMTTD), Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi hamda BMT Yevropa iqtisodiyot komissiyasi (UNECE) o'zaro hamkorlikda "O'zbekiston Respublikasining Yashil makon tashabbusi amalga oshirilishini qo'llab-quvvatlash uchun master-rejalashtirish va innovatsion moliyaviy yechimlar" qo'shma loyihasini ishga tushirdi. Bu loyihadan asosiy ko'zlangan maqsad shuki, iqlim o'zgarish holatini yumshatish va iqlim ta'siriga moslashish bo'yicha Parij bitimini doirasidagi maqsadlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Shuningdek Osiyo Taraqqiyot Banki bilan hamkorlikda yirik sanoat korxonalarida ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv tamoyillarini (ESG) joriy qilishning hozirgi holati o'rganilib, ushbu tamoyillarni keng joriy qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. Bundan tashqari, iqlim o'zgarishining iqtisodiyot tarmoqlariga bo'lgan xavfni baholash instrumentini (Climate Risk Assessment Tool) ishlab chiqish bo'yicha texnik ko'mak jalb qilindi [2].



1-rasm. 2022-yil Davlat budjeti xarajatlari [3]

Iqlim o'zgarishiga ijobiy ta'sir qiluvchi xarajatlarning asosiy qismini (96.4%) moslashish xususiyatidagi xarajatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Davlat budjetining xarajatlari 2022-yilda 236,7 trln. so'mni tashkil qilga bo'lib, xarajatlarning 87,3% qismi iqlim o'zgarishiga ta'sir qilmaydigan xarajatar va shu bilan birga 12,3% qismi bevosita ijobiy xususiyatga ega.

1-jadval

Iqlim o'zgarishi turiga qarab iqlim xarajatlari [4]

	2020-yil	2021-yil	2022-yil
Iqlim o'zgarishini yumshatish (milliard so'm)	205,1	535,3	612,7
Iqlim o'zgarishiga moslashish (milliard so'm)	14 264,8	15 966,3	25 414,8
Aralash ta'sir (milliard so'm)	409,0	308,3	274,8
Iqlim o'zgarishi uchun dolzarb choralar (milliard so'm)	14 878,9	16 809,8	26 302,4

Iqlim o'zgarishini yumshatish (foiz)	1,4%	3,2 %	2,3%
Iqlim o'zgarishiga moslashish (foiz)	95,9%	95,0%	96,6%
Aralash ta'sir (foiz)	2,7%	1,8%	1,0%

Iqlimga ta'sir ko'rsatadigan xarajatlarni o'z tabiatiga ko'ra tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, eng katta guruhni moslashish chora-tadbirlari tashkil etadi (95 foizdan yuqori qismi). Yumshatish va aralash guruhlarining ta'siri esa unchalik katta emas (mos ravishda 1,4 va 2,7 foiz).

Energetika vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kunda aholiga elektr energiyasi va tabiiy gaz iste'moli uchun davlat budjetidan o'rtacha 14 trillion so'mdan ortiq subsidiyalar ajratilmoqda. Subsidiyalarni yildan-yilga kamaytirib borish rejalashtirilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2024-yilda 12 trillion, 2025-yilda 8,5 trillion hamda 2025-yilda 7,5 trillion so'm bo'lishi prognoz qilingan. Energiya sohasiga ajratilayotgan subsidiyalarni kamaytirish va yangi "uglerod solig'i" tizimini qo'llash orqali O'zbekistonda yiliga yalpi ichki mahsulotning 5 foiziga teng miqdordagi budjet imkoniyatlari hosil bo'lishi mumkin. Hosil bo'lgan imkoniyatlar yashil iqtisodiyotga o'tish choralari yanada jadallashtirishga xizmat qiladi. [5]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, aslida ham ekologik muammolar ijtimoiy-g'oyaviy va hududiy chegara bilmaydi. Ularning oldini olishda yagona samarali yo'l esa dunyo xalqlari, barcha millat va elatlar e'tiborini tabiat va jamiyatdagi nomutanosiblik hamda uning kun sayin keskinlashib borayotganiga qaratish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://uzbekistan.un.org/uz/189059-bmt-taraqqiyot-dasturi-va-bmt-yevropa-iqtisodiyot-komissiyasi-yashil-makon-tashabbusini-qo>
2. Byudjetnoma 2022-2026// Iqtisodiyot va moliya vazirligi. - Toshkent,2023
3. Fuqarolar uchun budjet // Iqtisodiyot va moliya vazirligi. - Toshkent,2022

4. CPEIR, “Iqlim o‘zgarishi sohasida davlat xarajatlari va institutsional tahlil: O‘zbekiston” // BMT Taraqqiyot Dasturi (BMTTD), 2023

5. Mohira Shavkat Qizi Davlatboyeva, Inomjon Turayevich Jumaniyazov Yashil byudjetlashtirish va uni O‘zbekistonda joriy etish istiqbollari // Science and Education. 2023. №2.

6. Jumaniyazov Inomjon To‘rayevich. (2024). ESG IN SOVEREIGN WEALTH FUND INVESTMENTS. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 41(2), 117–124.

7. <https://proreforms.uz/uz/publications/11-of-uzbekistans-national-budget-allocated-to-climate-friendly-activities-183>

